

VARVARIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK MAZMUNI HAMDA XUSUSIYATLARI

Abbosova Nargiza Kobulovna
PhD, katta o'qituvchi (FarDU)

Xumoraxon Begmatova Omonjon qizi,
Komilova Nilufar Ixtiyorjon qizi
Lingvistika: Ingliz tili yo'nalishi magistranti(FarDU)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada varvarizmlarning leksik - semantik tahlili va mazmuni ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Olinma so'zlar, sheva, o'zlashma so'zlar, leksik- semantik, leksik sath, varvarizmlar, o'zlashma til, affikslar.*

O'zbek tilining lug'at tarkibi bir necha asrlar davomida shakllanib, boyib kelmoqda. Til lug'at boyligining shakllanishida ikki manba:

- 1) ichki, ya'ni til materialini asosida so'z yasash, shevalardan so'z olish;
- 2) boshqa tillardan so'z o'zlashtirish, yoki olinma so'zlar mavjud bo'lib, xuddi shu asosda til boyib, rivojlanib boradi.

O'zbek tilining o'z qatlamini umumturkiy va o'zbekcha so'zlar , shu bilan birga o'zbek tili materiallari zaminida yasalgan so'zlar tashkil etsa-da, unda o'zlashma affikslar va asos komponentlarning ham salmog'i katta. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at boyligining asosiy qismi o'z qatlamga mansub. Shu bilan birga tilimizning boshqa tillar hisobiga boyib borishi ham mavjud fakt sifatida e'tirof etiladi.

Boshqa xalqlar bilan uzoq yillar davomida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diplomatik aloqalarning kuchayib borishi, madaniy munosabatlarning yaqinlashishi tilga ham kuchli ta'sir qiladi. O'zbek xalqining uzoq yillar davomida tojik xalqi bilan

yonma-yon yashashi uning tiliga ko'plab fors-tojikcha so'zlarning kirib kelishi va bunda og'zaki muloqotning bevosita ta'siri ko'zga tashlansa, arab tilidan so'z o'zlashtirishda yozma manbalarning yetakchi ekanligini ko'ramiz. Shuningdek, uzoq yillar davomida rus tilining ta'siri orqali tilimizga slavyanizmlarning kirib kelishi jarayoni yuz berdi. Bu borada rus tili orqali baynalmilal leksika kirib kelishi ham kuzatildi.

O'zlashma so'zlar hisobiga boyib borgan o'zbek tili lug'at tarkibining asosi turkiy va o'zbekcha so'zlardan iborat bo'lib qolaverdi. Bu uning fonetik, grammatik sathlaridagi holatlarda yaqqol seziladi. O'zbek tili o'zining milliy xususiyatlarini saqlab, boyitib borishida xuddi shu sathlarga suyandi.

Ma'lumki, o'z va o'zlashgan qatlamni ajratib olish, ular orasiga chegara qo'yish oson ish emas. Bu narsa avvalo, so'zlarning etimologiyasi masalasining yoritilmaganligi bilan bog'liq. Avvalo juda ko'p so'zlar, ayniqsa, arxaik so'zlarning etimologiyasini aniqlash qiyin. Ikkinchidan, mavjud etimologik tahlillar ham so'zning qaysi tilga mansubligini aniq ko'rsatib berolmaydi. Buning asosiy sababi leksik o'zlashmalarning bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan – to'g'ri emas, ko'p hollarda vosita tili orqali o'tishidir. Jumladan, o'zbek (turkiy) tilidan rus tiliga o'tgan xauz, kanal, kazna, plov, shurpa so'zlarining asli kelib chiqishi boshqa tillardan ekanligi ham fikrimizning dalili bo'la oladi.

O'zlashma so'zlarning o'ziga xos jihatlarini ularning fonetik tarkibida ham ko'rish mumkin. Chunonchi, sof o'zbekcha so'zlarda portlovchi lab-tish *v* undoshi, sirg'aluvchi *j* va qorishiq *s* undoshlarining uchramasligi, so'z boshida *z*, *l*, *r*, *ng* undoshlarining kelmasligi, so'z oxirida *g* undoshining deyarli uchramasligi va boshqa hodisalarni kuzatish mumkin. Xuddi shu tarzda rus tilida so'z boshida *a* tovushi kelishi (*anketa*, *agent*, *ariya*), so'z tarkibida *f* tovushining bo'lishi (*kafe*, *kefir*, *fonar*), ikki va undan ortiq unlining yonma-yon kelishi (*karaul*, *poet*), *e* tovushining qatnashishi (*etaj*, *epoxa*) va boshqalar so'zning o'zlashma ekanligini ko'rsatadi.

Demak, tilda leksik o'zlashmalar fonetik o'zlashmalarni (*fonemalar o'zlashtirilishini*) ham keltirib chiqaradi. Nutq tovushlari (*fonema*) o'zlashtirilishi ularning soni kamligi uchun ko'zga uncha tashlanmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, barcha adabiyotlarda tilning leksik sathida bo'lgan o'zgarishlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Vaholanki, tillar orasidagi munosabatlar ularning barcha sathlarida o'z izini qoldiradi.

O'zbek tili asosiy leksik birliklari zamirida asrlar davomida taraqqiy etib, rivojlanib kelayotgan va o'zining jamiyat talablariga javob berishi bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llanib xizmat qilayotgan adabiy shakliga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga o'zbek tili dunyodagi barcha tillar kabi qardosh tillar hamda jahon xalqlari tillari ta'sirida boyib, o'zgarib borayotgan til hamdir. Qariyb barcha lingvistik adabiyotlarda qayd qilinganidek, leksik sathda yuz bergan o'zgarishlar ikki yo'l bilan: bevosita muloqot, o'zaro so'zlashuv jarayonida va yozma manbalar, kitobiy aloqalar, diplomatik munosabatlar, tarjima ishlarining keng yo'lga qo'yilishi bilan so'z o'zlashtirish ko'zga tashlanadi.

O'zbek xalqining tojik (*fors*) tili bilan bo'lgan munosabati birinchi shaklda yuz bergan bo'lsa, arab, rus va bu til vositasida baynalminal leksikadan o'zlashtirish ikkinchi shaklini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, o'zbek tili leksikasining boyib borishida olinma, o'zlashtirma so'zlarning ham o'z o'rnini bor. O'zlashma so'zlar tilda paydo bo'lgan yangi hodisalarning nomlanishini qondirishda asosiy vosita bo'lib, xizmat qiladi. Demak, tillar orasidagi o'zaro munosabatlar ularning boyishi, rivojlanishi va taraqqiy qilishida asosiy vositadir. Shuning uchun o'zga tillardan so'z o'zlashtirish, agar ular lingvistik talablarga to'g'ri javob bersa hamda o'zlashtiruvchi til vakillari ehtiyojini to'liq qondirolsa, ijobiy hodisa hisoblanadi. Bunda o'zlashma leksika muayyan tilning fonetik va grammatik qonuniyatlari, talafuz meyorlariga moslashishi, bo'ysunishi talab qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.S.Mahmadiyev «O‘zbek Tilshunosligining Dolzarb Muammolari» fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Samarqand – 2021.
2. Миртожиев М. М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси (Ўқув қўлланма). Тошкент, 2000, 54-58-бетлар
3. Мухиддинова ва бошқалар. Хозирги узбек адабий тили. Тошкент, 2006, 58-бет
4. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили, Т., 1970, 48-бет
5. Саидов А., Қосимова М., Каримова Л. “Ўзбек ҳуқуқий атамалари муаммолари”“Ўзбек тили ва адабиёти”, 1993,